



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI



PRESS-RELIZ



2023- yil yanvar-mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

2023- yil yanvar-mart, dastlabki ma’lumotlar

Demografiya statistikasi – ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi;

Doimiy aholi soni **36 197,8** ming kishi
(2023- yil 1- aprel holatiga)

Tirik tug‘ilganlar soni	Vafot etganlar soni	Aholining tabiiy o‘shishi
215 028 nafar 2022- yil yanvar-martga nisbatan 5,6 % ga ko‘paygan	39 045 nafar 2022- yil yanvar-martga nisbatan 3,5 % ga kamaygan	175 983 nafar 2022- yil yanvar-martga nisbatan 7,8 % ga ko‘paygan
Tug‘ilish koeffitsiyenti	Vafot etish koeffitsiyenti	Tabiiy o‘shish koeffitsiyenti
24,1 ‰ 2022- yil yanvar-martga nisbatan 0,7 ‰ ga ko‘paygan	4,4 ‰ 2022- yil yanvar-martga nisbatan 0,2 ‰ ga kamaygan	19,8 ‰ 2022- yil yanvar-martga nisbatan 0,1 ‰ ga ko‘paygan
Qayd etilgan nikohlar soni	Nikohdan ajralishlar soni	Mingta nikohga to‘g‘ri keladigan ajralishlar
49 502 ta 2022- yil yanvar-martga nisbatan 14,5 % ga kamaygan	13 021 ta 2022- yil yanvar-martga nisbatan 6,6 % ga ko‘paygan	263,0 ‰ Bunda har 1000 ta tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni nikoh mustahkamligi koeffitsiyentini ifodalaydi.
Nikoh tuzish koeffitsiyenti	Nikohdan ajralish koeffitsiyenti	
5,6 ‰ 2022- yil yanvar-martga nisbatan 1,0 ‰ ga kamaygan	1,5 ‰ 2022- yil yanvar-martga nisbatan 0,1 ‰ ga ko‘paygan	2022- yil yanvar-martga nisbatan 52,9 ‰ ga ko‘paygan
Xorijdan ko‘chib kelganlar soni	Xorijga ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
914 kishi 2022- yil yanvar-martga nisbatan 2,4 % ga ko‘paygan	4 063 kishi 2022- yil yanvar-martga nisbatan 3,6 % ga ko‘paygan	-3 149 kishi 2022- yil yanvar-martga nisbatan 4,2 % ga ko‘paygan
Doimiy aholi sonining umumiy o‘shishi	+764,0 ming kishi	2022- yilga nisbatan 2,2 % ga ko‘paygan


I BO‘LIM. DOIMIY AHOLI

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi;


O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni

1-aprel holatiga

**Doimiy aholi soni,
ming kishi**



**O‘sinh sur‘ati,
% da**



Aholi sonining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

Erkaklar



50,3 %

18 216,6

ming kishi

Ayollar



49,7 %

17 981,2

ming kishi

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



51,0 %

18 459,8

ming kishi

Qishloq



49,0 %

17 738,0

ming kishi

Shahar aholisining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

Erkaklar



50,1 %

9 248,5

ming kishi



Ayollar



49,9 %

9 214,3

ming kishi

Qishloq aholisining jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

Erkaklar



50,6 %

8 971,1

ming kishi



Ayollar



49,4 %

8 766,9

ming kishi

2023- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **36 197,8** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **18 216,6** ming kishini, ayollar soni **17 981,2** ming kishini, shahar aholisi soni **18 459,8** ming kishini, qishloq aholisi soni **17 738,0** ming kishini tashkil etdi.


2023-yil 1- aprel holatiga shahar joylar doimiy aholisining **50,1** foizini erkaklar, **49,9** foizini esa ayollar tashkil etgan.

Shuningdek, qishloq joylar doimiy aholisining **50,6** foizini erkaklar, **49,4** foizini esa ayollar tashkil etganligi kuzatildi.

Yosh – imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o‘lchangan, tug‘ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo‘lgan davr oralig‘iga tengdir. Masalan, insonni tug‘ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng;

Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi

2023- yil 1-yanvar holatiga




2023- yil 1- yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **2160,4** ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, **641,2** ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **2001,8** ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni **715,3** ming kishini tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi – tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi aholisining tug‘ilishda kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **74,3** yoshni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich erkaklar uchun **72,1** yosh, ayollar uchun esa **76,6** yoshni tashkil etgan. Shuningdek, shahar joylarda **74,8** yosh, qishloq joylarda esa **73,6** yoshni tashkil etmoqda.

Keksayish koeffitsiyenti – BMT demograflari tomonidan keksayish jarayonini baholash maqsadida uch bosqichli mezon ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, 65 va undan yuqori yoshdagi aholi ulushi 4,0 foizdan kam bo‘lsa – demografik yosh, 4,0-7,0 foiz bo‘lsa – keksayish bo‘lag‘asida, 7,0 foizdan oshsa hudud aholisi demografik keksa hisoblanadi;

O‘zbekiston Respublikasi aholisining keksayish koeffitsiyenti dinamikasi




2023- yil 1- yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida 65 va undan yuqori yoshdagi aholi salmog‘i **5,4** foizni tashkil etdi. Bu esa, xalqaro mezonlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi aholisi “demografik keksayish bo‘lag‘asida”gi mamlakatlar qatoriga kirishini anglatadi.

Demografik bosim koeffitsiyenti – 1000 ta mehnatga layoqatli yoshdagi (16-54 yoshli ayollar va 16-59 yoshli erkaklar) aholiga qancha mehnat yoshidan kichiklar (0-15 yoshlilar) va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (55 yosh va undan katta ayollar, 60 yosh va undan katta erkaklar) to‘g‘ri kelishini anglatadi;

Demografik bosim koeffitsiyenti

(yil boshiga 1000 ta mehnatga layoqatli aholiga nisbatan, kishi)




Umumiy demografik bosim koeffitsiyenti **720** kishini (har 1000 mehnatga layoqatli aholiga nisbatan), mehnat yoshidan kichiklar bosim koeffitsiyenti **534** kishini, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar bosim koeffitsiyenti **186** kishini tashkil etmoqda.

Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti – bir ayoldan tug‘ilib reproduktiv davr (15-49 yosh) oxirigacha yetib borgan qizlarning o‘rtacha sonini ifodalaydi.

Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti nemis olimi R. Kuchinskiy tomonidan taklif etilgan va fanga kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha netto-koeffitsiyenti dinamikasi, nafar




Demograflar tomonidan netto-koeffitsiyentini baholash maqsadida uch bosqichli mezon ishlab chiqilgan. Agar netto-koeffitsiyenti **1,0** dan kam bo‘lsa, mamlakat demografik kamayish jarayonida, **1,0** ga teng bo‘lsa, demografik turg‘unlik va **1,0** dan oshsa, demografik o‘shish jarayonida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsiyenti **1,579** nafarni tashkil etmoqda. Bu esa, xalqaro mezonlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi demografik o‘shish jarayonida ekanligini anglatadi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);

Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil 1- aprel holatiga




2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **31,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

2023- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi




O‘zbekiston Respublikasida 2023- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha **80,6** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,7** kishiga ortgan (2022- yil 1- aprel holatiga 1 kv.km.ga **78,9** kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6647,8** kishi, Andijon viloyatida **776,3** kishi, Farg‘ona viloyatida **590,9** kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,5** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **11,9** kishini tashkil etgan.

Aholi zichligi dinamikasi


1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni


2023- yil 1- aprel holatiga

Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi



Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p Samarqand viloyatida **4 137,9** ming kishi, Farg‘ona viloyatida **3 994,8** ming kishi, Qashqadaryo viloyatida **3 499,1** ming kishi, eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida **900,9** ming kishi, Navoiy viloyatida **1 060,6** ming kishi va Jizzax viloyatida **1 483,1** ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholisi soni eng ko‘p bo‘lgan shahar/tumanlar



Doimiy aholisi soni eng ko‘p Samarqand shahrida **575,8** ming kishi, Urgut tumanida **548,5** ming kishi, Andijon shahrida **470,5** ming kishi, Denov tumanida **412,1** ming kishi va Olmazor tumanida **397,1** ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholisi soni eng kam bo‘lgan shahar/tumanlar




Doimiy aholisi soni eng kam G‘ozg‘on shahrida **9,1** ming kishi, Tomdi tumanida **15,8** ming kishi, Shirin shahrida **19,3** ming kishi, Qorovulbozor tumanida **19,6** ming kishi va Bo‘zatov tumanida esa **21,9** ming kishini tashkil etgan.

II BO‘LIM. TUG‘ILISH


O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan tug‘ilishlar

2023- yil yanvar-mart

Yanvar-mart oylarida
tug‘ilishlar soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati,
% da



Jinsi bo‘yicha taqsimlanishi

O‘g‘il bolalar



Qiz bolalar




Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,
kishi/ulushi

O‘g‘il bolalar



Qiz bolalar




Shahar va qishloq joylar
bo‘yicha taqsimlanishi


Shahar





Qishloq



O‘g‘il bolalar



Qiz bolalar




2023- yil yanvar-mart oylarida tirik tug‘ilganlar soni **215,0** ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni **111,4** ming kishini, qiz bolalar soni **103,6** ming kishi, tug‘ilganlar soni shahar joylarida **110,4** ming kishini, qishloq joylarida **104,6** ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan tug‘ilishlar soni yanvar oyida qayd etilgan **76 211** nafar bo‘lib, aksincha, eng kam tug‘ilishlar esa fevral oyida **73 937** nafar qayd etilgan.

Tirik tug‘ilish – nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim;

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart




2023- yilning yanvar - mart oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarni chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,7 %** ni, 2 nafar tug‘ilganlar **2,2 %** ni, 3 nafar va undan ortiq tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.

Tug‘ilganlar sonini aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug‘ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug‘ilgan hududi aniqlanadi hamda o‘sha hududning aholisi soniga qo‘shiladi;

Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart



2023- yil yanvar-mart oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **8,9 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **84,1 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **7,0 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **35,1 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **63,7 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,2 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar
2023- yil yanvar-mart

Hududlar kesimida tug‘ilganlar
soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori Surxondaryo viloyatida **28,2** promille, Jizzax viloyatida **26,7** promille, Qashqadaryo viloyatida **25,9** promille, eng kam ko‘rsatkich Buxoro viloyatida **19,8** promille Xorazm viloyatida **20,0** promille va Qoraqalpog‘iston Respublikasida **20,1** promilleni tashkil etgan.

Tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori
bo‘lgan shahar/tumanlar



Tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori Bektemir tumanida **57,4** promille, Yakkasaroy shahrida **51,6** promille, Yangihayot tumanida **39,6** promille, Davlatobod tumani **37,5** promille va Guliston shahrida **37,3** promilleni tashkil etgan.

Tug‘ilish koeffitsiyenti eng past
bo‘lgan shahar/tumanlar




Tug‘ilish koeffitsiyenti eng kam tuman, shaharlardan Bo‘zatov tumanida **11,5** promille, Xiva tumanida **12,7** promille, Ohangaron shahrida **13,7** promille, Taxiatoch tumanida **14,5** promille va Sergeli tumanida **14,7** promilleni tashkil etgan.

III BO‘LIM. VAFOT ETGANLAR


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

2023- yil yanvar-mart

Yanvar-mart oylarida vafot etganlar soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati, % da




Jinslar bo‘yicha taqsimlanishi

Erkaklar



Ayollar




Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



Qishloq




Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi


Erkaklar




Ayollar



Yanvar



Fevral



Mart


2023- yil yanvar-mart oylarida vafot etganlar soni 39,0 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 21,6 ming kishini, ayollar soni 17,4 ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida 20,7 ming kishini, qishloq joylarida 18,3 ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan vafot etganlar soni fevral oyida qayd etilgan 14 923 nafar bo‘lib, aksincha, eng kam vafot etganlar esa yanvar oyida 10 997 nafar qayd etilgan.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta‘sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;

O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart, kishi



2023- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 53,6 foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,7 foizi – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 9,0 foizi – o‘simtalardan, 3,9 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,6 foizi – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 1,4 foizi – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 16,8 foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart




2023- yil yanvar-mart oylarida vafot etganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar 8,7 % ni , mehnatga layoqatli yoshdagilar 23,9 % ni va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 67,4 % ni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

2023- yil yanvar-mart

**Hududlar kesimida o‘limlar soni
va koeffitsiyenti, kishi**



Hududlar bo‘yicha vafot etish koeffitsiyenti eng yuqori Qoraqalpog‘iston Respublikasida **4,8** promille, Surxondaryo viloyatida **4,8** promille, Xorazm viloyati va Toshkent shahrida **4,5** promille, eng kam ko‘rsatkich Navoiy viloyatida **3,5** promille, Sirdaryo viloyatida **4,1** promille va Namangan viloyatida **4,2** promilleni tashkil etgan.

**O‘lim koeffitsiyenti eng yuqori
bo‘lgan shahar/tumanlar**



O‘lim koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan Taxtako‘pir tumanida **13,4** promille, Qiziriq tumani va Chilonzor tumanida **8,2** promille, Qorao‘zak tumanida **7,9** promille va Yangiyo‘l shahri **7,4** promilleni tashkil etgan.

**O‘lim koeffitsiyenti eng past
bo‘lgan shahar/tumanlar**




O‘lim koeffitsiyenti eng kam bo‘lgan Bo‘zatov tumani **1,3** promille, Mirzacho‘l tumani **2,0** promille, Zarafshon shahri **2,2** promille, Yakkasaroy tumani **2,3** promille, va Yangihayot tumani **2,5** promilleni tashkil etgan.

IV BO‘LIM. NIKOHLAR


O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan nikohlar

2023- yil yanvar-mart

Yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni, ming birlik




O‘sish sur‘ati, % da




2023- yil yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni **49,5** ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **8,4** birlikka kamaygan. 2020- yilning mos davri bilan taqqoslanganda esa, nisbatan o‘zgarmaganligi kuzatildi.

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



2023- yil yanvar-mat oylarida qayd etilgan nikohlar soni **49,5** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **33,0** mingtani (**66,7 %**), qishloq joylarida **16,5** mingtani (**33,3 %**) tashkil etgan.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik/ulushi



Hisobot choragida qayd etilgan nikohlar soni bo‘yicha eng ko‘p yanvar oyida **18 032** nafar, aksincha, eng kam fevral oyida **10 153** nafar nikohlar qayd etilgan.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi;

Nikohlanganlarning o‘rtacha yoshi

2023- yil yanvar-mart




2023- yil yanvar-mart oylari davomida qayd etilgan nikohlarda ayollarning o‘rtacha yoshi **23,1** yoshni, erkaklarning o‘rtacha yoshi esa **28,0** yoshni tashkil etgan. Qayd etilgan nikohlarning eng katta ulushi 25 yoshgacha bo‘lgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohlarning **74,5** foizini tashkil etgan.

Nikoh yoshi – O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin;

Nikohlanuvchilarning yoshi bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart, birlik



O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qayd etilgan nikohlar

2023- yil yanvar-mart

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik




Hududlar bo‘yicha nikoh koeffitsiyenti eng yuqori Xorazm viloyatida **10,8** promille, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **7,5** promille, Surxondaryo viloyatida **6,8** promille, eng past ko‘rsatkich Namangan viloyatida **4,1** promille, Toshkent va Navoiy viloyatlarida **4,4** promilleni tashkil etgan.

Nikoh koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar



Nikoh koeffitsiyenti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Xiva shahrida **15,7** promille, Qo‘shko‘pir tumanida **14,3** promille, Xiva tumanida **12,7** promille, Yangiariq tumanida **11,3** promille va Yangibozor tumanida **11,2** promilleni tashkil etgan.

O‘lim koeffitsiyenti eng past bo‘lgan shahar/tumanlar




Nikoh koeffitsiyenti bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Yangiobod tumani **2,1** promille, Yangi Namangan tumani **2,2** promille, Namangan tumani **2,7** promille, Forish va Toshkent tumanlarida **2,8** promilleni tashkil etgan.

V BO‘LIM. NIHOHDAN AJRALISHLAR


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

2023- yil yanvar-mart

Yanvar-mart oylarida nikohdan ajralishlar soni, ming birlik




O‘shish sur‘ati, % da



2023- yil yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni **13,0** ming birlikni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,2** mingtaga yoki **1,7** barobarga ko‘payganligi kuzatildi.

Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik/ulushi

Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



Shahar

Qishloq

Yanvar



59,4 %

40,6 %



2 564

1 755

Fevral



59,6 %

40,4 %



2 526

1 714

Mart



59,8 %

40,2 %



2 667

1 795

2023- yil yanvar-mart oylarida nikohdan ajralishlarning soni **13,0** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **8,5** mingtani, (**65,4 %**), qishloq joylarida **4,5** mingtani (**34,6 %**) tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni mart oyida **4 462** nafar, aksincha, eng kam nikohdan ajralishlar esa fevral oyida **4 240** nafarni tashkil etgan.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh sud hal qiluv qarorlari asosida yoki FHDYO ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi;

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart

60,2 %



Farzandsiz ajrashganlar

2023- yil yanvar-mart oylarida farzandsiz nikohdan ajralishlar soni **2 918** tani tashkil etgan.

2023- yil yanvar-mart oylarida 1 nafar farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **7 834** tani tashkil etgan.

22,4 %



1 nafar farzand bilan ajrashganlar

17,4 %



2 va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar

2023- yil yanvar-mart oylarida 2 va undan ortiq farzand bilan nikohdan ajralishlar soni **2 269** tani tashkil etgan.

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

2023- yil yanvar-mart

Erkaklar

38,5
yosh



Ayollar


33,8
yosh

Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2023- yilning yanvar-mart oylarida erkaklar uchun **38,5** yoshni, ayollar uchun **33,8** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi 35 yoshgacha bo‘lgan ajralayotgan ayollarga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni jami nikohdan ajrashganlarning **62,3 %** ini tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

2023- yil yanvar-mart

Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik




Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori Sirdaryo viloyatida **2,1** promille, Toshkent shahrida **2,0** promille, Andijon viloyatida **1,8** promille, eng kam ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatida **1,0** promille, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida **1,1** promilleni tashkil etgan.

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar



Nikohdan ajralish koeffitsiyenti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangiyer shahrida **7,3** promille, Bektemir tumanida **6,8** promille, G‘ozg‘on shahrida **5,3** promille, Shirin shahri **3,4** promille va Uchquduq tumanida **3,3** promilleni tashkil etgan.

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan shahar/tumanlar




Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan Yangi Namangan tumani va Ohangaron shaharlari **0,4** promilleni, Ko‘kdala, Toshkent va Taxiatosh tumanlari **0,6** promilleni tashkil etgan.

VI BO‘LIM. MIGRATSIYA


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

2023- yil yanvar-mart

Yanvar-mart oylarida jami ko‘chib kelganlar soni, ming kishi




O‘shish sur‘ati, % da




Jinslar kesimida taqsimlanishi

Erkaklar




Ayollar




Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

Erkaklar




Ayollar




Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi


Shahar




Qishloq



Erkaklar




Ayollar



7 486



10 714




2023- yil yanvar-mart oylarida ko‘chib kelganlar soni 51,5 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 21,3 ming kishini, ayollar soni 30,2 ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida 44,7 ming kishini, qishloq joylarida 6,8 ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan ko‘chib kelganlar soni fevral oyida 18 200 nafar, aksincha, eng kam ko‘chib kelganlar esa yanvar oyida 16 388 nafarni tashkil qilgan.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;

Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart



O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan 30,3%), Qozog‘iston Respublikasi (25,9%), Tojikiston Respublikasi (17,7%), Qirg‘iz Respublikasi (6,2%), Ukraina Respublikasi (1,2%) va boshqa mamlakatlar (18,7%) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ko‘chib kelganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart




2023- yil yanvar-mart oylarida ko‘chib kelganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 9,2% mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 83,2% mehnatga layoqatli yoshdagilar va 7,6% mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

2023- yil yanvar-mart

Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida **30,2** promille, Toshkent viloyatida **8,7** promille, Navoiy viloyatida **8,4** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **0,8** promille, Andijon viloyatida **1,8** promille va Farg‘ona viloyatida **2,1** promilleni tashkil etgan.

Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar



Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Yangiyo‘l tumani **68,5** promille, Sergeli tumani **56,7** promille, Yashnobod tumani **55,7** promille, Bektemir tumani **43,7** promille va Yakkasaroy tumani **33,5** promilleni tashkil etgan.

Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan shahar/tumanlar




Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng kam bo‘lgan Mingbuloq tumani **0,1** promille, Marg‘ilon shahri **0,1** promille, Dehqonobod tumani **0,2** promille, Ko‘kdala tumani **0,2** promille va Yangi Namangan tumani **0,2** promilleni tashkil etgan.


O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

2023- yil yanvar-mart

Yanvar-mart oylarida jami ko‘chib ketganlar soni, ming




O‘shish sur‘ati, % da




Jinslar kesimida taqsimlanishi

Erkaklar




Ayollar




Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, kishi/ulushi

Erkaklar




Ayollar




Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi


Shahar




Qishloq



Erkaklar




Ayollar



Erkaklar



Ayollar




2023- yil yanvar-mart oylarida ko‘chib ketganlar soni 54,6 ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni 22,9 ming kishini, ayollar soni 31,7 ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida 45,5 ming kishini, qishloq joylarida 9,1 ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan ko‘chib ketganlar soni fevral oyida 18 986 nafar, aksincha, eng kam ko‘chib ketganlar esa yanvar oyida 17 178 nafarni tashkil etgan.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan chiqarishda tuziladigan ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishlash natijasida aniqlanadi;

Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart



O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami 75,2%), Rossiya Federatsiyasi (20,5%), Qirg‘iz Respublikasi (0,5%), Turkmaniston Respublikasi (0,4%), Tojikiston Respublikasi (0,2%) va boshqa mamlakatlar (3,2%) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ko‘chib ketganlar sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart




2023- yil yanvar-mart oylarida ko‘chib ketganlarni yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlaganda 9,6% mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 83,0% mehnatga layoqatli yoshdagilar va 7,4% mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

2023- yil yanvar-mart

Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Toshkent shahrida 21,8 promille, Navoiy viloyatida 9,3 promille, Toshkent viloyatlarida 8,5 promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida 1,5 promille, Andijon viloyatida 2,3 promille va Farg‘ona viloyatida 2,8 promilleni tashkil etgan.

Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar



Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Sergeli tumani 31,1 promille, Yakkasaroy tumani 30,4 promille, Mirobod tumani 29,3 promille, Chilonzor tumani 29,0 promille va Uchtepa tumani 24,8 promilleni tashkil etgan.

Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan shahar/tumanlar



Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng past Yangi Namangan tumani 0,1 promille, Davlatobod tumani 0,2 promille, So‘x tumani 0,3 promille, To‘raqo‘rg‘on tumani 0,8 promille va Yaniqu‘rg‘on tumani 1,0 promilleni tashkil etgan.

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.



Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi

Tel: 71 203 80 00 (ichki 1240)